

**ABDULHAMID CHO‘LPONNING “GO‘ZAL” SHE’RINING INGLIZ  
TILIDAGI TARJIMALARINING LINGVOPOETIK TAHLILI (A.  
STANILAND VA A. OBIDOV TARJIMALARI MISOLIDA)**

**Olimjonova Nozimaxon Erkin qizi**

Namangan davlat chet tillari instituti

2-bosqich magistranti

Toshkent Davlat yuridik instituti huzuridagi

Namangan viloyati akademik litseyi “Tillar” kafedrası o‘qituvchisi

[nozima.olimjonova02@gmail.com](mailto:nozima.olimjonova02@gmail.com)

+998932160131

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yirik vakili Abdulhamid Cho‘lponning “Go‘zal” she‘rining ingliz tiliga ikki tarjimasi — Andrew Staniland va A‘zam Obidov variantlari lingvistik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — har ikki tarjimonning so‘z tanlovi, poetik ifoda, ramziy qatlam va uslubiy strategiyalarni qiyoslab, Cho‘lpon poetikasining ingliz tilidagi talqinini aniqlashdir. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Staniland asarda poetik ohang va musiqiylikni saqlashga e‘tibor qaratgan bo‘lsa, Obidov semantik aniqlik va milliy obrazlarning sodiq tarjimasini afzal ko‘rgan. Maqola Cho‘lpon she‘riyatining tarjimadagi lingvopoetik talqinlarini yoritishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Cho‘lpon, Go‘zal she‘ri, tarjima, lingvopoetik tahlil, Andrew Staniland, A‘zam Obidov, ramz, qiyosiy tahlil.

**Annotation:** This article provides a linguistic analysis of two English translations of Abdulhamid Cho‘lpon’s poem “Go‘zal” (The Beautiful) — by Andrew Staniland and A‘zam Obidov. The main aim is to compare the translators’ lexical choices, poetic expressions, symbolic layers, and stylistic strategies to determine how Cho‘lpon’s poetic essence is rendered in English. The findings show that while Staniland focuses on preserving poetic rhythm and musicality, Obidov emphasizes semantic precision and cultural faithfulness. The paper highlights the linguistic and poetic interpretation of Cho‘lpon’s work in translation.

**Keywords:** Cho‘lpon, The Beautiful, translation, linguopoetic analysis, Andrew Staniland, A‘zam Obidov, symbolism, comparative study.

**Аннотация:** В статье проводится лингвистический анализ двух английских переводов стихотворения Абдухамида Чолпона «Гўзал» — выполненных Эндрю Станиландом и А‘замом Обидовым. Цель исследования — сравнить лексические, стилистические и символические особенности переводов и определить степень сохранения поэтики Чолпона в английском

языке. Результаты показывают, что Станиланд стремится передать музыкальность и ритм оригинала, в то время как Обидов придерживается семантической точности и национальной образности. Работа раскрывает лингвопоэтические аспекты перевода творчества Чолпона.

**Ключевые слова:** Чолпон, стихотворение «Гузал», перевод, лингвопоэтический анализ, Эндрю Станиланд, А'зам Обидов, символизм, сравнительный анализ.

Abdulhamid Cho'lpon (1897–1938) o'zbek adabiyotining eng yorqin namoyondalaridan biridir. Uning asarlari o'zbek milliy ongini uyg'otishda, ozodlik va insoniylik g'oyalarini targ'ib etishda muhim o'rin tutadi. Shoir ijodida go'zallik, erkinlik va vatanparvarlik ramzlari markaziy o'rinni egallaydi. Cho'lponning "Go'zal" nomli she'ri ham ana shu ma'nolarni o'zida mujassam etgan bo'lib, unda go'zallik timsoli orqali Vatan, erkinlik va orzular dunyosi ifoda etilgan.

So'nggi yillarda Cho'lpon asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish ishlari faol olib borilmoqda. Ularning orasida Andrew Staniland va A'zam Obidov ijodlari alohida e'tiborga loyiqdir. Ikkala tarjimon ham "Go'zal" she'rini ingliz tiliga o'girish jarayonida shoir poetikasini o'zgacha talqin qilgan. Shu bois, bu tarjimalarni qiyoslash Cho'lpon she'riyatining xalqaro talqinini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Cho'lpon she'riyati o'zining lirizmi, musiqiyligi va ramziy ifodalari bilan ajralib turadi. Shu sabab, o'z davrida, A.Sa'diy Cho'lponni "Simvolist" shoir deb ataydi.<sup>14</sup> "Go'zal" she'rida ham bu hol aniq seziladi: u go'zallikni nafaqat jismoniy sifat, balki ma'naviy va ruhiy poklik timsoli sifatida tasvirlaydi.

Masalan, she'rda "Go'zal" so'zi butun matn davomida ramziy markaz sifatida xizmat qiladi. Shoir uchun "go'zal" — bu inson ruhining yuksak holati, Vatan uchun kurashish orzusi va hayotning o'zi. Shu ma'noda, bu she'rni tarjima qilish jarayoni nafaqat lingvistik, balki madaniy masalani ham o'z ichiga oladi.

#### **Asosiy qism. She'r va tarjimalarning umumiy xarakteri**

"Go'zal" she'rida lirik qahramon o'z qalbidagi iztirob, orzu va go'zallikni ifodalaydi. Cho'lpon "go'zal" obrazini bir vaqtning o'zida **ayol, hayot, ozodlik va Vatan** ramzi sifatida ishlatadi. Bu ko'p qavatli ma'no qatlamini tarjimada ifodalash tarjimon uchun katta sinovdir.

Ikkala tarjimon ham she'rni o'ziga xos uslubida, bor imkoniyatlaridan foydalanib, she'rdagi ma'no-mazmunni, nafosatni o'quvchiga iloji boricha yetkazib berishga harakat qilishgan. Staniland Cho'lponning ruhini va romantik-estetik hissiyotini saqlab qolgan. Ingliz o'quvchisi uchun tushunarli, lekin o'zbekona

<sup>14</sup> Quronov D. Jadidlar. Abdulhamid Cho'lpon. Yoshlar Nashriyot uyi, Toshkent-2022 -160b.

ruhiyatidan ham chekinmagan. She`r ingliz tilida erkin ritmda yozilgan bo`lsa-da, satrlarning uzluksiz oqimi va ohangdorligi seziladi. She`rda “Personifikatsiya” (yulduz "shy" deb tasvirlanadi va gapiradi), “Qiyoslash”(we are not as beautiful, the moon is not as beautiful) va ramziy obrazlardan foydalaniladi. Tarjimon she`rning oxirgi qatorini boshqacha shaklda ya`ni “simile” dan foydalanib tarjima qiladi:

“... In any dream of mine, she is so beautiful,

Oh, we are not as beautiful, the moon is not as beautiful!”<sup>15</sup>

A.Obidov tarjimasini " a-b-a-b-a-a shaklida bo`lib, qofiya va ritmga to`liq solishga harakat qilingan:

“I look at sky at night in darks,

And ask you from the brightest star

That star inclining head remarks:

"I always dream of her afar.

In my dream she pretty thus -

Finer than the Moon and us!”<sup>16</sup>

She`rning birinchi qatoridagi "look" so`zi, asliyatdagi tikilib ma`nosini to`laligicha yetkazib berolmagan. Bunda Staniland tarjimasidagi "Stare up" so`zi holatni yaxshiroq tasvirlab bergan. Oxirgi qatordagi "finer" so`zi ham go`zal ma`nosini nisbatan kamaytirib, soddalashtirib qo`ygandek go`yo, ehtimol, o`rniga "lovely/cute" so`zlari bo`lganida, asliyatdagi ma`noni yanada yaxshiroq ifodalab bergan bo`lardi.

A`zam Obidov tarjimasini g`oyaviy jihatdan originalga yaqin, ammo grammatik va stilistik kamchiliklar poetik ta`sirni susaytirgan. Tarjimada go`zallik ta`rifini kuchli, ammo ifodalar ingliz tiliga to`liq moslashtirilmagan. Andrev Staniland tarjimasini esa mazmunni soddalashtirgan bo`lsa-da, ingliz she`riyati uslubiga mos, yumshoq ohangli, musiqiy va badiiy jihatdan kuchliroq ko`rinadi. O`quvchiga hissiy ta`sirni kuchliroq yetkazadi. Masalan, she`rdagi “...Ul-da aytadirki: «Qizil yanoqqa Uchradim tushimda, ko`milgan oqqa!» qismini, A.Obidov : It says: “I met in dream - so nice, With a beauty that in white.” ko`rinishida, Andrev Staniland esa: “I saw her in a dream last night, Cheeks cherry red and on a bed of white” shaklida tarjima qiladi.

Cho`lponning “Go`zal” she`rida uchraydigan “Uning–chun yonibmen, yonib-kuyibmen” satri lirik qahramonning ichki iztiroblarini, muhabbat tufayli kechayotgan ruhiy va hissiy alangani kuchli metafora orqali ifodalaydi. Ushbu satrda “yonib–yonib-kuyib” shaklidagi gradatsiya emotsional kuchayishni ta`minlab, shoirning ruhiy holatini dramatik darajada ochib beradi. Andrev Staniland ushbu ifodani “I am

<sup>15</sup> Andrev Staniland.”A.Navoiy Ghazals and Rubaiyat”

<sup>16</sup> <http://azamabidov.uz/?p=2536>

on fire” tarzida tarjima qilib, metaforaning umumiy mazmunini saqlagan bo‘lsa-da, asl misradagi ikki pog‘onali hissiy kuchayish (gradatsiya)ni soddalashtirib yuborgan. Uning variantida lirik holatning ichki iztiroblari emas, balki umumiy romantik “yonish” holati ifodalangan. A’zam Obidov tarjimasida esa “For her sake I was inflamed” shakli tanlanib, mazmuniy jihatdan asliyatga sodiqroq yondashuv kuzatiladi. “Inflamed” fe’li yonish va alangalashni anglatib, lirik qahramonning ichki ruhiy holatini ancha kuchliroq aks ettiradi. Shu bois, mazmuniy sodiqlik nuqtai nazaridan Obidov varianti Cho‘lponning iztirobga to‘la poetik ohangiga yaqinroq bo‘lsa, Staniland varianti ingliz she’riyatiga mos, silliq va minimalist talqin sifatida ko‘zga tashlanadi. Shu tariqa, har ikki tarjima o‘ziga xos poetik yondashuvni namoyon qilgan bo‘lib, biri dramatik mazmuni (Obidov), ikkinchisi esa badiiy tabiiylikni (Staniland) ustun qo‘yadi.

### Xulosa

Cho‘lponning “Go‘zal” she’ri o‘zbek adabiyotining eng yuksak namunalaridan biri bo‘lib, unda go‘zallik, ozodlik va inson ruhiy olamining uyg‘unligi kuylanadi. She’rning ingliz tiliga tarjimalari bu asarning xalqaro maydonda tanilishida muhim o‘rin tutadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, Andrev Staniland tarjimasida **poetik uyg‘unlik va badiiy erkinlik**, A’zam Obidov tarjimasida esa **semantik sodiqlik va milliy ruh** ustuvorlik qiladi. Har ikkala tarjima Cho‘lponning poetikasini turli madaniy muhitlarda talqin etish imkonini bergan. Bu esa o‘zbek she’riyati tarjima san’atida lingvopoetik tahlilning naqadar ahamiyatli ekanini yana bir bor ko‘rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar ro‘yxati:

1. Quronov D. Jadidlar. Abdulhamid Cho‘lpon. Yoshlar Nashriyot uyi, Toshkent-2022 -160b
2. Andrev Staniland.”A.Navoiy Ghazals and Rubaiyat”
3. <http://azamabidov.uz/?p=2536>